**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"

______ SH.SHaripov

201 8 yil "28" 06

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

______

201 8 yil "25" 08

Ro'yhatga olindi: BD-5111400-2.08

201 8 -yil "18" 08

**Til aspektlarini o'rgatish amaliyoti kompetentsiyasi**

FANDASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 | - | Gumanitar |
| Ta`lim sohasi: | 110000 | - | Pedagogika |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5111400 | - | Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili va adabiyoti) |

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "25" 08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

O.N.Yusupov — Nizomiy nomidagi TDPU "Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasi mudiri, dotsent

A.D.Abdieva — Nizomiy nomidagi TDPU "Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

H.A.Mamatqulov — Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zDJTU, Ingliz tili integrallashgan kursi kafedrasi №1 mudiri

N.Ismatullaeva — O'zDJTU akademik litseyi, Xorijiy tillar kafedrasi mudiri

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil 28 06 dagi 11 -sonli bayonnoma).

## I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Til aspektlarini o’rgatish amaliyoti kompetentsiyasi fani talabalarning til modellari va strukturalari xaqidagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi va ularga muloqot jarayonida grammatik va leksik formalarni to’g’ri ishlatishni o’rgatadi. Shuningdek, o’rganilayotgan chet tilidagi matnlarni tahlil qilish yo’llari va usullarini, matnlarni tahlil qilish borasidagi turli nuqtai nazarlarni va matn tahlilida e'tiborga olinishi lozim jihatlarni batafsil o’rgatishni nazarda tutadi. Ushbu fan “Kommunikativ grammatika”, “Kommunikativ leksika” va “Diskurs tahlili” modullarini o’z ichiga oladi.

Til aspektlarini o’rgatish amaliyoti kompetentsiyasi fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-4 semestrlar davomida o’qitilishi maqsadga muvofiq. O’quv rejaning xorijiy tilni o’qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, til ko’nikmalari integrasiyasi, metodika, mamlakatshunoslikka oid kurslari va o’rganilayotgan chet tilining nazariy kurslari - umumiy tilshunoslik, stilistika va matn tahlili, nazariy fonetika, qiyosiy tipologiya, nazariy grammatika fanlaridan zaruriy bilimlarni egallashda ushbu fan modullari bo’yicha o’zlashtirilgan ko’nikma va malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

## II. O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Mazkur fanning maqsadi talabalarga tilning uch muhim aspekti: grammatika, leksika va diskurs tahlilini o’rgatish, ularni muloqotda to’g’ri qo’llash malakalarini rivojlantirish va til aspektlari to’g’risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko’nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo’llay olishlarini ta'minlashdir. Fanning asosiy vazifasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko’ra talabalarning o’rganilayotgan chet tilini B2 darajada egallashlari uchun zaruriy til aspektlarini o’rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

**Bakalavr:**

– chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko’ra B2 darajada o’zlashtirish;
– grammatik va leksik strukturalarni muloqotda qo’llash, farqlay olish va ularni og’zaki va yozma nutqda to’g’ri ishlatish;
– kasbiy yo’nalish va ijtimoiy-madaniy mavzulardagi so’zlarning ma'nosini bilishi va to’g’ri qo’llay olish;
– og’zaki nutq va yozma matnlarga xos xususiyatlarni farqlay olishi va muloqotda to’g’ri qo’llash;
– grammatika, leksika va diskurs tahlili bo’yicha tasavvur, bilim, malaka va ko’nikmalarga, kompetensiyalarga ega bo’lish ***bilimiga;***

- uslublarni bir-biridan farqlashga yo’naltirilgan qator idiomatik til birliklar va og’zaki so’zlashuvdagi so’zlarni qo’llay olish;
- jargon va idiomalarni qo’llash;
- ibora va ifodalarni muloqotning turli vaziyatlarida ishlata olish (muloqotga kirishish uchun so’z navbati olish, vaqtdan yutish maqsadida muqaddima va xulosa iboralarini ishlatish kabi);
- tinglovchini chalg’itmagan holda so’zlarga ekvivalent bo’lgan terminlarni qo’llash;
- leksik bog’liqlik - sinonim, antonim, omonimlarni o’rinli qo’llay olish ***ko’nikma;***
- ma'lum mavzuga doir so’zlar yig’indisini tuza olish (atrof-muhit, inson xarakteri va b.);
- o’zgarmas iboralar va leksik birliklarni qo’llay olish;
- ma'lum bir so’zning dialektlarda turlicha qo’llash;
- frazeologik birliklar, fe'llar va so’z yasalishining o’ziga xos xususiyatlari qo’llash;
- qisqartma so’zlar, so’z birikmalari, genetik jihatdan bir oilaga mansub so’zlarni qo’llay olish;
- professional va akademik terminologiya va kontekstga mos bo’lgan hamda korpus-analiz bazasidagi so’zlarni to’g’ri ishlatish;
- lug’at bilan ishlay olish (bir va ikki tilli, kitob/elektron/onlayn lug’atlar);
- notanish so’z ma’nosini kontekstdagi ma'nosiga ko’ra taxminan aniqlay olish;
- o’rganishning turli usullari (yodlash, kunlik reja, assosiasiya orqali o’rganish va hokazo) dan to’g’ri foydalana olish ***malakasiga ega bo’lishi kerak;***

## III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar)

1-mavzu: Artikllar va aniqlovchilar (aniq va noaniq artikllar)

2-mavzu:Ot (qo’shma otlar, sanoqli/sanoqsiz otlar);

3-mavzu:Olmoshlar (kishilik, ko’rsatish, egalik, gumon,so’roq, o’zlik olmoshlari);

4-mavzu:Son (sanoq, tartib sonlari);

5-mavzu: Fe'l (m.n.: fe'l zamonlari, fe'l mayllari, nisbatlari, modal fe'llar, fe'lli birikmalar, fe'lning noaniq shakllari: infinitiv, hozirgi/o’tgan zamon ravishdoshlari, h.k.);

6-mavzu:Sifat (qiyosiy daraja, orttirma daraja);

7-mavzu:Ravish (ravish yasalishi);

8-mavzu:Bog’lovchilar (teng, zidlov, inkor bog’lovchilari);

9-mavzu:Sintaksis: sodda, murakkab va qo'shma gaplar: ergashgan qo'shma gaplar;

10-mavzu: Grammatik kategoriyalar: o'zlashtirma gaplar, faraz ma'nosini ifodalash;

11-mavzu: Grammatik formalar/funksiyalar;

12-mavzu: So'roq so'zlar, savol/javob va inkor;

13-mavzu:O'zlashtirma gaplar.

## 2-Modul. Kommunikativ leksika (so'z boyligini oshirish) moduli

14-mavzu:sinonimlar, antonimlar, omonimlar;

15-mavzu:so'z oilalari (mas., hayvonot olamiga oid so'zlar);

16-mavzu:turg'un birikmalar;

17-mavzu:idiomatik til birliklari;

18-mavzu:adabiy til va sheva (dialekt) o'rtasidagi farqlar;

19-mavzu:leksik tizim;

20-mavzu:so'z yasalishi xususiyatlari;

21- mavzu:qisqartmalar;

22-mavzu:predloglar.

## IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyihalar tayyorlash, rolli o'yin, debatlar, prezentasiya metodlaridan keng foydalaniladi.
Amaliy mashulotlarda aqliy hujum, klaster, blis-so'rov, kichik guruhlarda ishlash, insert, prezentasiya, keys-stadi kabi usullardan keng foydalaniladi. Modullar 100% o'rganilayotgan tilda o'qitiladi.

## V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va faoliyat turlari:
- Grammatik strukturalar (sodda, murakkab va qo'shma gaplar va h.k.) ni muloqotda qo'llash.

- Strukturalarni farqlay olish, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatish.
- O'rganilayotgan til grammatikasi model va strukturalarining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish va ularni o'zlashtirish uchun o'z ona tili tizimi bilan taqqoslash.
- Ibora hamda og'zaki nutqda qo'llaniladigan so'zlarning ko'chma va to'g'ri manosini bilishi va to'g'ri qo'llash.
- Lug'at boyligini oshirish uchun manbalar (lug'atlar, registrlar, so'z ko'rsatkichlari va boshqalar).
- Frazeologik birliklar, fe'llar.
- So'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.
- Qisqartma so'zlar.
- So'z birikmalari.
- Qarindosh va bir oilaga mansub so'zlar.
- Professional va akademik terminologiya.
- Kontekstga mos bo'lgan hamda korpus-analiz bazasidagi so'zlar.
- Turli janrlarning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, ilmiy-ommabop asarlar, gazeta maqolalari, badiiy adabiyot va b.).
- O'zaro leksik munosabat (lingvistik omillarning qo'llanilishi).
- Matnda so'zlar mutanosibligi.
- Rasmiy, norasmiy, maxsus matnlar.

## VI.Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar


1. Mark Nettle. Developing Grammar in Context. CUP 2008.
2. Martin Hewings. English Pronunciation in Use Advanced Book. CUP 2009.
3. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Vocabulary in Use Advanced. CUP 2009.


### Qo'shimcha adabiyotlar


4.Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

5. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.

6. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

7. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni
8. Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.:-2016y. 29-dekabr
9. Jack Richards and Theodore S.Rodgers. Approaches and methods in language teaching. Cambridge University press. 2016

10. Martin Hewings. English Pronunciation in Use. Advanced. Self-study and classroom use.
11. Diane Larse Freeman. Techniques and principles in language teaching. Oxford 2011
12. McCarthy, M. and O'Dell, F., Redman, S. English Vocabulary in Use (intermediate and upper) Cambridge: CUP (3rd edition) UK, 2012
13. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles Destination (book 1 & 2) Macmillan Education UK, 2013
14. McCarthy, M. Discourse Analysis for Language Teachers. Cambridge: CUP. UK, 2009

**Internet saytlarii**

15. www.teachingenglish.org.uk
16. www.elgazette.com
17. www.learnenglish.org.uk
18. www.educationuk.org
19. www.bbc.co.uk\worldservice\learningenglish
20. www.channel4.com\learning
21. www.better-english.com\exerciselist.htm
22. www.englishclub.com\index.htm